

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION BIZNES MODELLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Tayirov Ozodbek Ulug'bek o'g'li

TDIU Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"
kafedraasi assistenti tayirovozodbek@gmail.com

Ziyodova Rayhona Jasur qizi

Samarqand iqtisodiyoti va servis instituti talabasi
rayhonaziyodova546@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20542803>

Annotatsiya

Globalashuv, raqamli transformatsiya va "Sanoat 4.0" sharoitida O'zbekiston Respublikasining xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion biznes modellarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi kompleks tahlil qilinadi. Maqolada 2022–2025-yillardagi so'nggi statistik ma'lumotlar asosida milliy xizmatlar sohasining tarkibiy o'zgarishlari, raqamli texnologiyalar va platformali biznes modellarining (fintech, elektron tijorat, CRM, ERP tizimlari) operatsion samaradorlikka ta'siri baholangan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarida innovatsion biznes modellarini joriy etishdagi tizimli muammolar, jumladan, hududiy iqtisodiy nomutanosibliklar va innovatsion faollikni cheklovchi institutsional omillar aniqlangan. Tahlillar natijasida sohada tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish va investitsion jozibadorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Xizmat ko'rsatish sohasi, innovatsion biznes modeli, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya, fintech, elektron tijorat, tranzaksion xarajatlar, mehnat unumdorligi, hududiy nomutanosiblik.

Zamonaviy global iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi yalpi qo'shilgan qiymat va bandlikning asosiy qismini shakllantiruvchi fundamental drayverga aylandi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Jahon banki va UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, global yalpi qo'shilgan qiymatda xizmatlar ulushi 70 foizga yaqinlashgan. Hozirgi kunda an'anaviy xizmat ko'rsatish usullari o'z o'rnini raqamli platformalar, sun'iy intellekt, 5G texnologiyalari va bulutli tizimlarga asoslangan innovatsion biznes modellariga bo'shatib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham xizmatlar sohasini innovatsion modernizatsiya qilish davlat iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-



maydagi PQ-5113-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" ushbu sohani tizimli monitoring qilish va uning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushini oshirish uchun asosiy poydevor bo'ldi¹. Milliy iqtisodiyot tarkibida xizmatlar sohasi eng jadal o'sayotgan tarmoq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlariga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlaridan xizmatlar sohasi 7,7 foiz o'sish sur'ati bilan yalpi ichki mahsulotga eng yuqori (+3,4 foiz band) ijobiy hissa qo'shgan bo'lsa, sanoat tarmog'i 1,6 foiz, qurilish 0,6 foiz, qishloq xo'jaligi esa atigi 0,6 foiz ulush bilan hissa qo'shgan.

Biroq, raqamlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion biznes modellarini joriy etish jarayoni bir tekis kechmayapti. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlarida yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish uchun yetarli moliyaviy resurslarning yo'qligi, shuningdek, xodimlarning innovatsiyalardan foydalanish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi sohadagi real iqtisodiy samaradorlikni to'liq namoyon etishga to'sqinlik qilmoqda. 2024-yil 26-fevralda qabul qilingan "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-87 sonli Prezident Qarori milliy IT-xizmatlar eksportini rag'batlantirish va hududiy tadbirkorlik subyektlarini raqamli platformalarga jalb qilishda yangi institutsional imkoniyatlarni ochib berdi. Mazkur jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini tizimli va ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llarini aniqlash tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.²

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Innovatsiyalar va ularning biznes samaradorligiga ta'sirini baholash nazariyasi uzoq rivojlanish tarixiga ega. Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat va tizimli transformatsiyalar mohiyatini birinchilardan bo'lib asoslab bergan Jozef Shumpeter (Schumpeter, 1934) o'zining "ijodiy buzilish" (creative destruction) konsepsiyasida yangi texnologiyalar va biznes modellarini joriy etish orqali an'anaviy bozor tizimlarini yangilash iqtisodiy rivojlanishning fundamental asosi ekanligini ta'kidlaydi. Uning yondashuvi bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining an'anaviy operatsiyalardan platformali echimlarga o'tish mexanizmlarini tushunishda muhim hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" to'g'risidagi PQ-5113-sonli Qarori.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-87-sonli Qarori.



Dani Rodrik (Rodrik, 2021) o'zining tarkibiy o'zgarishlar va xizmatlar sohasining yuksalishi haqidagi ilmiy ishlarida xizmatlar iqtisodiyotining an'anaviy va zamonaviy (yuqori texnologiyali) segmentlarini bir-biridan farqlash lozimligini uqtiradi. U an'anaviy xizmat turlari past unumdorlikka ega ekanligini, ammo innovatsion biznes modellari orqali xizmatlar sektori ham yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi va iqtisodiy o'sish drayveriga aylanishi mumkinligini isbotlaydi.³

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham ushbu masalani tadqiq etishgan. Xususan, xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi innovatsion biznes bo'lib, u boshqaruv obyekti sifatida korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. N.B. Yahyoxonov mikromoliyaviy xizmatlar misolida biznes modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalarini va ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar orqali tahlil qilgan. Shuningdek, A. Abdullayev raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlarini asoslab bergan.

Shunga qaramasdan, so'nggi yillarda (2022–2025-yillar) milliy xizmatlar bozorida ro'y bergan jadal raqamlashtirish, ayniqsa elektron tijorat platformalari (marketpleyslar), fintech va smart-logistikaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri mahalliy adabiyotlarda to'liq va kompleks tarzda yoritilmagan bo'lib, chuqur empirik tadqiqotlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, trendlarni modellashtirish va indeksli tahlil usullaridan foydalanildi. Innovatsion biznes modellarini joriy etish samaradorligini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2022–2025-yillardagi rasmiy statistik to'plamlari va press-relizlari empirik baza sifatida jalb etildi.

Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlikni baholashning an'anaviy moliyaviy va zamonaviy ijtimoiy-texnologik ko'rsatkichlar tizimi uyg'unlashtirildi. Innovatsion biznes modelni (masalan, CRM/ERP tizimlari yoki elektron savdo platformalarini) joriy etish samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Asosiy qism muammolar tahlili va natijalar

O'zbekistonda xizmatlar bozori so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi yanvar oyi dinamikasida 2024-yilda 52,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa,

³ Rodrik, D. (2021). Structural Transformation and the Rise of Services. Journal of Economic Perspectives, 35(4), 17–34.



2025-yilda u 66,2 trln soʻmga, 2026-yilning mos davrida esa 80,5 trln soʻmga yetgan. 2025-yilning dastlabki 9 oyida koʻrsatilgan umumiy xizmatlar hajmi 722,2 trln soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,0 foizga oshgan. Mazkur oʻsish koʻrsatkichlari xizmat koʻrsatish korxonalarida raqamli platformalar va innovatsion modellarning joriy etilish dinamikasi bilan uzviy bogʻliqdir.

Quyidagi jadvalda 2024–2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy turlari boʻyicha hajmlari va ularning tarkibiy oʻsish surʼatlari keltirilgan.

Bozor xizmatlari turlari	2024-yil hajmi (trln soʻm)	2025-yil hajmi (trln soʻm)	Haqiqiy oʻsish surʼati (%)	Tarmoqdagi asosiy innovatsion biznes modellar
Savdo xizmatlari	155,0	187,0	120,6%	Onlayn marketpleyslar (B2C, B2B), raqamli tarqatish kanallari.
Transport xizmatlari	145,3	188,3	129,6%	Raqamli logistika, GPS-monitoring, aqlli dispetcherlik (Logistics 4.0).
Moliyaviy xizmatlar	95,9	122,9	128,1%	Fintech, mobil banking, masofaviy skoring, neobanklar.
Yashash va ovqatlanish	183,9	226,9	123,4%	Onlayn bronlash tizimlari, raqamli buyurtma (delivery platform).
Taʼlim xizmatlari	32,1	39,6	123,4%	EdTech platformalari, masofaviy oʻqitish modellar (LMS).
Sogʻliqni saqlash	16,0	19,9	124,4%	Telemeditsina, elektron poliklinika (E-health).



Aloqa va axborotlashtirish	18,2	23,6	129,7%	Bulutli texnologiyalar (SaaS), 5G tarmoq infratuzilmasi.
Ko'chmas mulk xizmatlari	20,9	25,9	123,9%	Raqamli agentliklar, proptech platformalari.
Ijara xizmatlari	9,9	12,8	129,3%	Sharing iqtisodiyoti (carsharing, asbob-uskunalar ijara).
Shaxsiy va maishiy xizmatlar	15,6	19,9	127,6%	CRM tizimlari orqali avtomatlashgan xizmat buyurtmasi.
Boshqa xizmatlar	40,0	51,1	127,7%	Autsorsing, konsalting xizmatlari.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.⁴

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davrda eng yuqori o'sish sur'atlari axborotlashtirish va aloqa (129,7%), transport (129,6%) va moliyaviy xizmatlar (128,1%) tarmoqlarida kuzatilgan. Ushbu tarmoqlar milliy iqtisodiyotda innovatsiyalarni birinchilardan bo'lib joriy etayotgan va raqamli ekotizimlarni shakllantirgan sohalar hisoblanadi. Xususan, moliyaviy xizmatlar hajmi 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 95,91 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning mos davrida 122,89 trln so'mga yetib, 20,8% nominal o'sishga erishgan va bu o'sish trendi 2025-yilda ham barqaror saqlanib qolgan. Bu o'sish an'anaviy bank xizmatlaridan masofaviy va raqamli platformalarga asoslangan fintech modellariga tezkor o'tish hisobiga ta'minlandi.

Biroq, innovatsion biznes modellarini joriy etish samaradorligi hududlar kesimida keskin farqlanadi, bu esa milliy iqtisodiyotda jiddiy nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda. 2025-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi ulushi mamlakat miqyosida 56,7 foizni (595,1 trln so'm) tashkil etgan. Hududlar bo'yicha tahlil etilganda, kichik biznesning xizmatlar hajmidagi ulushi Farg'ona (75,6%), Namangan (75,1%), Surxondaryo (75,0%) va Qashqadaryo (75,0%) viloyatlarida juda yuqori ekanligi aniqlandi. Aksincha, Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (40,9%) bo'lishiga qaramay, uning

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar-dekabr press-relizi). Toshkent.



mutloq hajmi mamlakatda eng yuqori ko'rsatkichni – 162,6 trln so'mni tashkil etadi.

Ushbu iqtisodiy fenomen shuni ko'rsatadiki, poytaxtda yirik korxonalar, raqamli ekotizimlar, transmilliy texnologik platformalar va xizmat ko'rsatish gigantlari jamlangan. Hududlarda esa xizmatlar asosan an'anaviy, kichik va ko'pincha raqamlashtirish darajasi past bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi hududiy korxonalarda innovatsion texnologiyalarni sotib olish uchun yetarli kapital qo'yilmalarning yetishmasligi hamda raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan malakali kadrlar taqchilligidir.

Xulosa va takliflar

2022–2025-yillardagi iqtisodiy va statistik tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasi xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion biznes modellarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi baholanib, quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchiidan, xizmat ko'rsatish sohasida raqamli platformalar, fintech va aloqa texnologiyalariga asoslangan innovatsion biznes modellari tarmoqning haqiqiy o'sish drayveriga aylandi va yalpi ichki mahsulot tarkibidagi xizmatlar ulushining sifat jihatidan yaxshilanishiga olib keldi.

Ikkinchiidan, innovatsion biznes modellarini muvaffaqiyatli tatbiq etish darajasi hududiy jihatdan nomutanosib taqsimlangan bo'lib, eng yuqori innovatsion unumdorlik va platformali biznes konsentratsiyasi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Viloyatlarda esa xizmatlar asosan innovatsion faolligi past va investitsion resurslari cheklangan kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga shakllanmoqda.

Uchinchiidan, innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi nafaqat texnologik infratuzilmaga, balki korxonadagi inson kapitali va boshqaruv strategiyalariga bevosita bog'liqdir. Inson kapitalining yetishmasligi va malakasiz boshqaruv innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda xavflarni oshiruvchi va rentabellikni pasaytiruvchi asosiy to'siq hisoblanadi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1.Hududiy "Raqamli Servis Ekotizimlari"ni yaratish: Kichik hududiy korxonalarini yirik raqamli marketpleyslar va logistik platformalarga integratsiyalash mexanizmlarini rag'batlantirish, bu orqali hududiy tadbirkorlarning tranzaksion xarajatlarini qisqartirish.

2.Kichik biznes subyektlarining innovatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Hududiy xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun CRM/ERP tizimlarini joriy etish, raqamli asbob-uskunalar sotib olish va masofaviy boshqaruv platformalarini sotib olish xarajatlarini qoplash uchun davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozli "raqamli lizing" dasturlarini yo'lga qo'yish.

3.Inson kapitalining sifatini oshirish dasturlari: Hududlardagi tadbirkorlar va ularning xodimlari uchun bepul yoki imtiyozli raqamli savodxonlik, raqamli marketing va zamonaviy servis menejmenti bo'yicha o'quv kurslarini (IT Park platformasida) tizimli tashkil etish.

Soliq-kredit rag'batlari tizimini takomillashtirish: Raqamli va eksportga yo'naltirilgan xizmat turlarini ko'rsatuvchi korxonalariga (PQ-87 doirasida IT xizmatlar eksportiga o'xshash) soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish, bu orqali venchur kapitali va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini jalb etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Abdullayev, A. (2024). Raqamli iqtisodiyot va menejment. Toshkent: Iqtisodiyot.
- 2.Asian Development Bank (ADB). (2023). The Service Economy in Asia: Trends and Policy Challenges. Manila: ADB.
- 3.Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. *Economica*, 4(16), 386-405.
- 4.OECD. (2023). Services Trade and Regional Competitiveness Report. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Yillik hisobot – 2024. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Xizmatlar sohasi statistik to'plami. Toshkent: Statistika agentligi.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar-dekabr press-relizi). Toshkent: Statistika agentligi.
- 8.Rodrik, D. (2021). Structural Transformation and the Rise of Services. *Journal of Economic Perspectives*, 35(4), 17–34.
- 9.Rogers, E. M. (1995). *Diffusion of Innovations* (4th ed.). New York: The Free Press.